

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA CHIZMALARNI O‘QISH VA TUZISHNI
O‘RGATISHNING AHAMIYATI

Ibragimov Sanjarbek Hoshim o‘g‘li, Mavlonova Gulshoda Shavkat qizi,

Xatamova Zilola Kaxramanovna

Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnologik ta‘lim yo‘nalishi talabalari, Navoiy shahri, O‘zbekiston, e-mail:bisenova.bakit@gmail.com

Ilmiy rahbar: dots.Bisenova Bakit Tobakabulovna

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida bugungi kunda texnologiya fanini o‘qitishning samaradorligini oshirish jahon andozalari asosida kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologiya fanini o‘qitishni rivojlantirishning ilmiy asoslarini yaratish va psixologik nuqtai nazardan qarash, uzoq yillar mobaynida yig‘ilgan pedagogik tajribalardan foydalanish Sharq maktablarining o‘ziga xos yangi tomonlarini ochib beradi.

Pedagogik bilim va tajribalarning bugungi taraqqiyotida belgili bo‘lgan o‘qitish usullaridan hammasini egallab, har bir real vaziyatlarga ko‘ra ularning eng keraklisini tanlab olish va ularning bir nechtasining yig‘indisini shakllantirish ustoz chevarligining birinchi belgilaridan biridir.

Maktab o‘quv rejasi o‘quvchilar ustaxonalaridagi mashg‘ulotlarga grafik bilim va malakalar bo‘yicha tayyorgarliksiz kelishlari hisobga olingan holda tuzilgan. Shu sababli Texnologiya fani o‘qituvchisi o‘quvchilarni ayrim bilimlar bilan tanishtirishi zarur bo‘lib, bu bilimlar o‘quvchilarning texnik hujjatlarni tushunishlariga va mehnat topshiriqlarini ongli ravishda bajarishlariga imkoniyat yaratishi lozim.

O‘quvchilarga chizmalarni o‘qish va tuzishni o‘rgatish uchun ularda grafik bilim elementlarini hosil qilish zarur. Bir qarashda ta‘lim jarayonida chizmalarni o‘qish va tuzish farqsizdek tuyuladi. Lekin amalda bunday emas. Dastlabki Texnologiya fani mashg‘ulotlarida o‘quvchilar buyumning tashqi ko‘rinishi, shakli

va o'lchamlarini tasavvur etishi lozim bo'lganidayoq chizmalarni o'qish zarurati tug'iladi.

Shunday qilib, o'quvchilarning grafik bilim elementlari bilan tanishishlari chizmalarni o'qishni o'rgatishdan boshlanadi. O'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlarda texnik hujjatlar sifatida texnik rasmlar, eskizlar va ish chizmalaridan foydalaniladi. Tajriba ishini texnik rasmdan boshlash kerakligini, shunda o'quvchilarning rasm solish bo'yicha olgan bilimlariga tayanish va ularda ishlanadigan buyumning grafik tasviri haqida tezroq tasavvur hosil qilish mumkinligini ko'rsatadi. Bolalarda buyumning shakli va haqiqiy o'lchamlari haqidagi tasavvur aniq bo'lishi uchun ularga texnik rasm bilan birga buyumning o'zini ham ko'rsatish kerak. O'quvchilar texnik rasmni o'zlashtirganlaridan keyin eskiz bilan tanishishga o'tiladi: Bunda ham buyumning tayyor namunalarini ko'rsatish lozim.

Chizmalarni o'qishga o'rgatishning asosiy ikkita usuli ma'lum. Ularning birinchisida chizmaga o'quvchilar javob qaytarishi lozim bo'lgan savollar ro'yxati ilova qilinadi. Savollar o'quvchi javob topish uchun chizmani o'rganishga, uni tahlil qilishga majbur bo'ladigan yo'sinda tuziladi. Bu usul umumiy ta'lim maktablarida qo'llaniladi. Lekin maktablarda o'tkazilgan tadqiqotlar ikkinchi metodik usulni tavsiya etish imkonini beradi. U o'quvchilarning ma'lum tartibda va muayyan reja bo'yicha chizmani o'rganishlari hamda uning mazmunini tahlil qilishlariga asoslangan bo'lib, bu ish quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Chizma bilan-umumiy tanishish.
2. Detalning asosiy yozuvi va gabarit o'lchamlarini: detalning nomi, materiali, tasvir masshtabi, gabarit o'lchamlarini o'qish.
3. Tasvirlarni: tasvir xarakteristikasi, detalning umumiy shakli, detal elementlarining shakllarini o'qish.
4. O'lchamlar, shartli belgilar va yozuvlarni: o'lchamlar va ularning o'zgarish chegaralarini, yuzalarning g'adir-budurligini, texnik talablar va ko'rsatmalarni o'qish.

Chizmada predmetning tasviri bilan birga texnologik jarayonni tashkil qilish va keyin buyumni ishlash uchun kerakli qator qo'shimcha ma'lumotlar ham bo'ladi. Shunga ko'ra chizmani o'qishni o'rgatish — o'quvchilarga faqat tasvirlangan buyumning fazodagi shaklini tasavvur etishni emas, balki uni tayyorlash va tekshirish uchun kerakli barcha ma'lumotlarni aniqlashni ham o'rgatishdir.

O'qituvchi chizmalarni o'qishni o'rgatishda avval tayyor buyum (detal) ni namoyish qiladi va undagi elementlarning nomlarini aytadi. Tayyor buyumlar sifatida sodda shaklli buyumlarni, masalan, yog'och taglik, yashik devori va hokazolarni olish tavsiya etiladi. Ana shu buyumlarda tekislik, torets kabi elementlar bo'ladi. Keyin o'qituvchi detalning (oldidan, yuqori va chap tomonlardan) ko'rinishlari haqida so'zlaydi. Shundan so'ng buyumning chizmasini ko'rsatib, uni yuqorida keltirilgan reja asosida qanday o'qish kerakligini tushuntiradi.

Chizmalarni muayyan reja asosida o'qish usulidan foydalanish o'quvchilar oldiga savol-topshiriqlar qo'yishni inkor etmaydi. Dastlabki savollar konkret, mazkur detalning konstruksiyasiga taalluqli, masalan, shponka ariqchasi chap toretsdan qancha oraliqdan boshlanadi? Faska plastinada qanday burchak ostida olingan? — qabilida bo'lishi kerak. O'quvchilar «gabarit o'lchamlar», «detalning elementi», «texnik shartlar» kabi tushunchalar bilan tanishganlaridan keyingina savollarni umumlashgan holda, masalan, mazkur detalni tayyorlashning texnik shartlarini ayting, chizmada ifodalangan detalning gabarit o'lchamlarini ko'rsating va hokazolar tarzida qo'yish mumkin.

O'quvchilar chizmani o'qish malakalarini o'zlashtirishda chizmachilikda qabul qilingan shartli belgilar bilan ham tanishishlari kerak. Bu esa chizmalar tuzishni o'rganish uchun zarur.

O'quvchilar amaliy ishda foydalaniladigan chizmalarni tuzsalar, ularning aktivligi va mehnat topshiriqlariga qiziqishi ortadi. Bu chizmalar ayniqsa modellashtirish jarayonida juda zarurdir.